

ISLOMDAGI BADR G'OZOTI

Asror Pardayev
Qarshi DU dotsenti,

Ravshanov Og'abek
Qarshi DU talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Makkalik mushrik(kofir)lar va Madinalik musulmonlar o'rtasida bo'lib o'tgan urush yoritiladi. Bu urushga musulmonlar farishtalar yordamida g'olib bo'lishgan.

Kalit so'zlar: Makka, Madina, Badr, Abu Sufyon, Abu Jahl, musulmon, kofir, Payg'ambar, quraysh, g'azot, ansor, sahoba, sura, oyat, Muso (a.s).

Muhammad sollallohu alayhi vassallam 40 yoshlarigacha ya'ni Payg'ambar bo'lgunlaricha tinch osoyishta hayot kechirdilar. Payg'ambar bo'lganlaridan so'ng Makka kofirlari tomonidan doimiy ravishda zulm ko'rdilar. Musulmonlar o'zlariga Makka kofirlari tomonidan bo'layotgan zulmni qaytarish uchun urushishga majbur bo'ldilar. Quroni Karim tabiri bilan aytganda; "O'zlariga qarshi urush ochilgan(musulmon)larga ularga zulm qilingani uchun (urushga) izn berildi. Albatta Alloh ularga nusrat berishga qodirdir" (Xaj surasi 39-oyat). Musulmonlar ikki umumiy qoidaga asoslanib urush qilishlari kerak edi. Birinchisi; "Fitna qatldan yomonroqdir" (Baqara surasi 191-oyat). Ikkinchisi; "Qasos olishga sizlarga hayot bor ey aql egalari" (Baqara surasi 179-oyat)¹.

Badr jangi: (624-yil 15 yoki 17-mart). Payg'ambarimiz rahbarligida musulmonlarning Badr qudug'i yaqinida(Madinadan 150 km janubiy-g'arbda) Makka kofirlari bilan bo'lgan birinchi yirik jangi².

Bu jang janglar ichida eng ulug'i hisoblanib, uning ulug'ligi moddiy jihatdan yoki askar ko'pligidan emas, balki ma'naviy diniy tomondan qaraganda ulug'dir. Bu jang boshlanishining sababi Makka kofirlarining katta karvoni Payg'ambarimizga tutqich bermasdan Shom(Suriya)ga o'tib ketadi. Bu karvonga Makka raislaridan biri Abu Sufyon boshchilik qilib kelyotgan edi. Payg'ambarimiz ularning Shomdan qaytib kelayotganidan habar topib karvonna to'sish uchun sahobalar(Payg'ambarimizga do'st bo'lgan kishilar) bilan yo'lga chiqadilar. Payg'ambarimiz muxojir va ansorlardan iborat 313-317 kishi bilan karvonni to'sishga chiqadilar³.

313-kishining 230 tasi ansor(Makkadan Madinaga kelganlar) 80 tasi esa muxojirlar(Payg'ambarimiz Madinaga xijrat qilganlarida yordamga kelgan Madina aholisi) edi⁴.

Abu Sufyon Payg'ambarimizni yo'l toshiga chiqqanlaridan xabar topib Makkaga Zam Zam ibn Amr degan kishini 20 misqol oltinga elchi qilib yuboradi. Zam Zam ibn Amr Makkaga yetib borib barchani Abu Sufyonga yordamga borishga chaqiradi. Makkadaqi quraysh(arab qabilasi) raislaridan Abu Lahabdan(haqiqiy ismi Abd al-Uzzo ibn Abdulmuttallib) o'zga chiqmagan kishi qolmaydi. Tezlik bilan tayyorlanib ikki kun ichida yo'lga chiqishadi. Makka kofirlarining soni 950 kishi bo'lib 700 ruya va 100 tacha sovutlangan otlari bor edi. Payg'ambarimizni Makka kofirlari kelayotganidan xabarlari yo'q edi. Payg'ambarimiz Madinadan ikki uch kun yurib Ravho degan joyga kelganlarida Makka kofirlarining

¹ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Islom Tarixi 1-qism. Toshkent.2021-yil. 298-299-bet.

² Islom ensiklopediyasi. Davlat Ilmiy Nashriyoti. 2004-yil. 46-bet.

³ Alixonto'ra Sug'oni. Tarixi Muhammadiy. 2007-yil. 90-91-bet.

⁴ Islom Ensiklopediyasi. Davlat Ilmiy Nashriyoti. 2004-yil. 46-bet.

qo'shini kelayotganidan xabar topadilar. Payg'ambarimiz sahobalarga qarab; "Ey mo'minlar, ikki toifaning birini bizga berishga Alloh va'da berdi. Shom tomonidan kelayotgan Quraysh karvoni yoki ularni to'sib chiqqan qo'shinlari bilan to'qnashsak zafar topguvchimizdir" dedilar. Shunda Al-Miqdod Payg'ambarimizga qarab shunday deydi; "Ey Allohning rasuli. Biz sizga Isroil avlodlari Muso alayhissalomga; Sen o'zing va Robbing borib, ular bilan jang qilaveringlar. Biz esa shu yerda o'tiruvchilarmiz" degan javobni aytmaymiz, balki "Siz boring Robbingiz bilan jang qiling. Biz ham siz bilan birga jang qiluvchilarmiz" deydi⁵.

Abu Sufyon Payg'ambarimizning yo'l to'sib chiqqanlarini eshitib, yurgan yo'lini o'zgartiradi va yiroq bo'lsa ham dengiz bo'ylab yo'lga tushadi. Abu Sufyon Makka raislariga qutilgani va ortga qaytishlarini bayon qilib xat yuboradi. Lekin bu yuborgan xatga Abu Jahl rozilik bermaydi va yo'lini davom ettiradi. Musulmonlar Badr vodiysiga yetib kelishadi. Payg'ambarimiz Hubob ibn Munzirning taklifi bilan Makka tomondagi birinchi quduqni egallaydilar. Ko'zlangan maqsad suv ko'p joyni egallab qolgan quduqlarni ko'mib dushmani suvsiz qoldirish edi. Bu paytga kelib Makka kofirlari ham yetib keladi. Har ikki tarafdagi askarlar saflarini tuzadilar⁶.

Yakkama yakkama olishuvlar boshlanadi. Makka kofirlaridan bir oiladan uch kishi Avf ibn Horis Muavviz ibn Horis – bu ikkisining onasi Afro va Abdulloh ibn Ravoha talabgor bo'lib chiqishadi. Dushman kofirlari Hoshimiylar(Hoshim ibn Abdumannov avlodi) bilan kurashishliklarini bildirishadi. Hoshimiylardan Ali, Ubayda, Hamza maydonga tushishadi. Ubayda Utbaga, Hamza Shaybaga, Ali esa Validga to'g'ri keladi. Eng avval qilich solib yenggan hazrati Ali bo'ladi. Hamza ham Shaybani o'ldiradi. Ammo hazrati Ubayda og'ir jarohatlanishadi. Ubayda shu jarohatlari tufayli Badr voqeasidan 3 yoki 4 kun o'tib Safro degan joyga vafot etadilar. Ali roziyallohu anhu manashu oyat ular haqida nozil bo'lganini qasamyod bilan takidlaganlar. "Mana bu ikki g'anim(ya'ni muminlar bilan kofirlar) Robblari haqida talashgan edilar..." (Xaj surasi 19-oyat). Kofirlar bu yo'qotishlardan so'ng yoppasiga musulmonlar ustiga yurish qiladi. Shu payt Payg'ambarimiz Robbilariga nustar so'rab duo qiladilar. Usha vaqtda qilgan duolarining ichida; " Allohim menga bergan vadangni o'zing ro'yobga chiqargin. Allohim men davatingdan umidvorman. Allohim aga ushbu guruh halok bo'ladigan bo'lsa, senga yer yuzida ibodat qiladigan hech kim qolmaydi" degan edilar. Alloh Taolodan oyat nozil bo'ladi; "(Ey Muhammad alayhis-salom). O'shanda Parvardigoringiz farishtalarga "Albatta men sizlar bilan birgaman, sizlar iymon keltirgan zotlarning (g'alaba qozonishga bo'lgan ishonchlarini) maxkamlanglar. Men kofir bo'lgan kimsalarning dillariga qurquv solaman..." (Anfol surasi 12-oyat)⁷.

Alloh taolodan mo'minlarga farishtalar yuborib Oli Imron surasida marhamat qiladi; "Ha (kifoya qiladi). Agar sabr va taqvo qilsangiz, ular shu payt kelib qolsalar ham, Robbingiz sizga belgili besh ming farishta ila madad beradi". (125-oyat) Badr kuni bu farishtalarning belgisi oq salla bo'lib, pechini orqalariga tushirib olgan ekan⁸.

So'ngra oradan bir soat o'tmasdanoq dushman askari buzilib orqa ugirib qochishga tushadilar. Bu shiddatli jangda Alloh taolo yordami bilan mo'minlar g'alaba qozonadilar. Makka kofirlari tarafidan 70 kishi o'ldiriladi. Yana 70 kishi asir olinadi. Bu urushda Abu Jahl va bir qancha Quraysh raislari o'ldiriladi.

⁵ Rahmatulloh qori Obidov. Payg'ambarlar tarixi Islomiyat tarixidan. Toshkent Movarounnahr 2005-yil. 109-bet. Imam Ibne Kaseer. Qisas-ul-Anbiya. Qohira. 273-bet.

⁶ Alixonto'ra Sug'oniy. Tarixi Muhammadiy Alixonto'ra Sug'oniy. Tarixi Muhammadiy. 2007-yil. 93-94-bet.

⁷ Sofiyyur Rahmon Muborakfuriy Banoras. Ar-rahiq al- maxtum. Xindiston. 1396-bet. 227-228-229-bet.

⁸ Shayx Muhammad Sodi Muhammad Yusuf. Islom Tarixi 1-qism. Toshkent.2021-yil. 253-bet .

Ibn Ma'sud Abu Jahl ni boshini uzib Payg'ambarimizga keltiradi. Shunda Payg'ambarimiz sahobalarga qarab "Har ummatning ichidan chiqqan Fir'avni bo'lur. Bu ummatning Fir'avni Abu Jahldir" deydi⁹. Musulmonlardan 14-kishi halok bo'ladi. Kuchlar nisbati kam bo'lishiga qaramay musulmonlar qozongan g'alaba Payg'ambarimizning siyosiy va diniy obro'yini oshirib yuboradi. Madina va butun arabiston yarim orolida faol harakat boshlab yuborishga asos bo'ladi¹⁰.

Payg'ambarimiz buyruqlari bilan jasadlar quduqlarga ko'miladi. Urush tugagach uch kundan keyin Payg'ambarimiz Madinaga yo'lga tushadilar. Madinaga qaytishlarida Safo degan joyga kelganlarida asir olingan Quraysh raisi Nasr ibn Hars Payg'ambarimiz buyruqlari bilan o'ldiriladi. So'ngra u joydan ketib Aroq az-zobyga degan joyga kelishganda yana bir Quraysh raisi Uqba ibn Mu'oz Osm ibn Sobitga topshirilib o'ldiriladi. Payg'ambarimiz Madinaga yetib kelganlarida mo'minlarga hursandchilik bo'lsa Makka kofirlariga motam bo'ladi.

Asirlar va o'ljalari: Bu jangda 30 ta ot 150 tuya va ko'p qurol anjomlar qo'lga kiritiladi. Anfol surasi 1-oyatida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: (Ey Muhammad alayhis-salom) sizdan o'ljalari haqida so'raydilar. Ayting: "O'ljalari Alloh va Payg'ambarinikidir. Bas, Allohdan qo'rqingiz va o'z oralaringizni o'nglangiz! Agar mo'min bo'lsangizlar, Alloh va uning Payg'ambariga bo'ysiningiz"¹¹.

Shundan so'ng Payg'ambarimiz uni musulmonlar o'rsasida taqsimlaydilar. Islom an-anasida o'ljani taqsimlashda 5 dan 1 qismi xalifalik xazinasiga tushadi. Piyoda askarga 1 hissa otliq askarga 2 hissa berilgan. Keyinchalik bu shariatda qonunlashtiriladi. Xalifalik xazinasiga tushgan bir hissani Payg'ambarimiz faqirlarga musofirlarga tarqatganlar. Jiyanlari Aliga ham 1 tuya ehson qilgan edilar¹². So'ngra asrlar haqida fikr ketganda Umar ibn Xattob o'ldirishni taklif qiladilar. Abu Bakir esa ulardan jon boshiga mol olib qo'yib yuborishni Payg'ambarimizga aytadilar. So'ng Alloh taolodan vahiy nozil bo'ladi; "Nabiy uchun yer yuzida zabardast bo'lmagunicha asirlari bo'lishi to'g'ri emas edi. Sizlar dunyoni o'tkinchi narsasini iroda qilasizlar. Alloh esa oxiratni iroda qiladi. Va Alloh azizdir, hakimdir" (Anfol surasi 67-oyat)¹³.

Payg'ambarimiz sahobalarga - ulardan fidya (ma'lum bir narsaning o'rniga mol sarflash) olib qo'yib yuborishni buyuradilar¹⁴.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Islom Tarixi. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Toshkent. 2021-yil.
2. Tarixi Muhammadiy. Alixonto'ra Sug'oni. 2007-yil.
3. Islom Ensiklopediyasi. Davlat Ilmiy Nashriyoti. Toshkent. 2004- yil
4. Qissasul-anbiyo. Ibn Kasir. Qohira
5. Ar-rohiq al-maxtum. Sofiyyur Rahmon Muborakfuriy Banoras. Hindiston
6. Sodati asri qissalari. Ahmad Lutfiy Qozonchi. Toshkent 2005-yil.
7. Payg'ambarlar tarixi Islomiya tarixidan 1-qism. Toshkent Movronnahr. 2005-yil.

⁹ Alixonto'ra Sug'oni. Tarixi Muhammadiy. 2007-yil. 97-98-99-bet.

¹⁰ Islom Ensiklopediyasi. Davlat Ilmiy Nashriyoti. 2004-yil. 46-bet.

¹¹ Sofiyyur Raxmon Muborakfuriy Banoras. Ar-rahq al-muxtum. Xindiston. 241-bet.

¹² Ahmad Lutfiy Qozonchi. Saodat asri qissalari 3-qism. 2005-yil. 27-bet.

¹³ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Islom Tarixi 1-qism. 2021-yil. 254-bet.

¹⁴ Alixonto'ra Sug'oni. Tarixi Muhammadiy. 2007-yil. 100-bet.